

2025-yil 15-sentabr

## Germaniya va O'zbekiston sanoat korxonalarini hamda ilmiy doiralari ishtirokida xalqaro forum bo'lib o'tdi



2024-yil aprel oyida Myunxen shahrida "Yangi O'zbekiston" universiteti va TUM (Myunxen texnika universiteti) hamkorligida tashkil etilgan Birinchi xalqaro ta'lim simpoziumi hamda universitet huzuridagi Xalqaro sanoat maslahatlashuv kengashining mantiqiy davomi sifatida Germaniya va O'zbekiston sanoat korxonalarini, ilmiy va ta'lim sohalari vakillari ishtirokida navbatdagi xalqaro forum o'tkazildi.

Mazkur forumda 20 dan ortiq xorijiy tashkilot vakillari hamda 60 dan ziyod mahalliy tashkilotlar qatnashdi.



Tadbir doirasida ikki davlat o'rtasidagi hamkorlikni yanada chuqurlashtirish, shuningdek, fan, ta'lim va sanoat integratsiyasini kuchaytirishga qaratilgan masalalar keng muhokama qilindi.

Forumda "O'zkimyosanoat" AJ boshqaruvi raisining birinchi o'rinbosari Yevgeniy Korjikov ham ishtirok etdi va mamlakatimiz kimyo sanoatidagi transformatsiya jarayonlari, xalqaro hamkorlik istiqbollari haqida o'z fikrlarini bayon etdi. Shuningdek, "ta'lim-ilm-fan-ishlab chiqarish" tamoyili asosida iqtidorli, salohiyatli mutaxassislar hamda yosh olimlarni tayyorlash, ularni qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar haqida so'z yuritdi. Ta'lim va ishlab chiqarishni uyg'unlashtirish bo'yicha takliflar bildirildi.



**“O‘zkimyosanoat” AJ Matbuot xizmati**

**source:**

*"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati*

<https://new.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/germaniya-va-o-zbekiston-sanoat-korxonalari-hamda-ilm-iy-doir>